

YUSUF XOS XOJIBNING MEROSINI MUZEYLASHTIRISH MASALALARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15667684>

Boymirzayev Sarvar Boynazar o'g'li
Alfraganus universiteti v.b. dotsenti, PhD.

Boymirzayevsarvar94@gmail.com

Elmuratova Shohista Ablakulovna
Alfraganus universiteti v.b. dotsenti, PhD.

FENDER4555@MAIL.RU

Annotatsiya: Ushbu maqolada XI asrda yozilgan Qutadg'u bilig asarning tarixiy ahamiyati, Yusuf xos Xojibning uy-muzeyini tashkil etish masalasi yoritilgan. Shuningdek uy-muzeyini bo'limlari, ularda nimalar asks ettirilishi lozimligi haqida takliflar berilgan.

Tayanch so'zlar: Yusuf Xos Xojib, Bolasog'un, Qoraxoniylar davlati, Qutadg'u bilig asari, muzey.

Abstract: This article discusses the historical significance of the 11th-century work "Kutadgu Bilig" and addresses the establishment of the Yusuf Khass Hajib House-Museum. Additionally, it provides proposals on the sections of the house-museum and what should be exhibited in them.

Keywords: Yusuf Khass Hajib, Balasagun, Karakhanid State, Kutadgu Bilig, museum.

KIRISH

O'zbekiston tarixida bugungi kunda bir nechta sulolalar hukmronlik qilgan. Sulolalarning har biri davrida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa tomonlardan taraqqiyot sodir bo'lgan. Jumladan, Qoraxoniylar davridir. 840 yilda Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarida "podshoh yag'ma" yoki "ilakxon" boshchiligidagi Qoraxoniylar davlati tashkil topadi [1, 147-b]. Bu davlat tarkibiga turli turkiy urug'lar – qarluqlar, chigillar, arg'ular, yag'molar va boshqa xalqlar kirgan bo'lib, ular 960-yilga qadar islom dinini qabul qilganlar. Qoraxoniylar davlatining saltanat darajasidagi rivoji va taraqqiyoti 10-asrning 2-yarmiga to'g'ri keladi. Abdulkarim Sotuq Bug'roxon hokimiyatni egallab, o'zini „Qoraxon“ deb e'lon qiladi. Bug'roxondan keyingi barcha xonlar ham ushbu unvon bilan ulug'langan. 992-yili elikxon Bug'ra boshchiligidagi Qoraxoniylar qo'shini Movarounnahr hududiga bostirib kiradi.

999-yili qoraxoniylar yana Buxoroni ishg'ol etib, amir Abdul Malik II va podshoh oilasini asirga oladilar. Bu hol Movarounnahrda hokimiyat qoraxoniylar foydasiga uzil-kesil hal bo'lishiga olib keladi. Qoraxoniylar davlati Koshg'ardan Amudaryogacha cho'zilgan Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Shosh, Farg'ona va qadimgi So'g'd yerlarini o'z ichiga olgan.

Qoraxoniylar davlati 1040-yilga kelib 2 mustaqil davlatga: sharqiy va g'arbiy qismga bo'linib ketadi. Sharqiy qismiga Yettisuv, Qashqar, Tarozi, Isfijob, Shosh va Sharqiy Farg'ona kirgan. Poytaxti Bolasog'un, madaniy markazi Qashqar bo'lgan. G'arbiy qism Movarounnahrda to Farg'ona vodiysining g'arbiy chegarasigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga oladi. Markazi Samarqand hisoblangan.

Poytaxt shahar davlatning siyosiy markazi bo'lishi bilan bir qatorda madaniy jihatdan ham markaz vazifasini baharadi. Bolasog'un shahri bunga misol bo'la oladi. Bolasog'un shahrini bugungi kunga qadar jahon ilm-fan olami tomonidan e'tirof etilishining sabablaridan biri bu 1069-70-yillarda yozib tugallangan "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi bilim") asarining muallifi Yusuf Xos Xojib nomi bilan bog'liq.

Uning hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar beruvchi yagona manba ham „Qutadg'u bilig“ kitobidir. Ushbu kitobga ko'ra, u zamonasining barcha asosiy ilmlarini atroflicha o'rgangan, arab va fors tillarini mukammal bilgan. Mahmud Koshg'ariy kabi turkiy tilning mavqeini oshirish, u madaniy adabiy hayotdan o'ziga munosib o'rin egallashi uchun kurashgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi bilim") asarining muallifi Yusuf Xos Xojibning merosini muayyazlashtirish maqsadida fanlararo yondashuv, tarixiylik va tizimlilik, qiyosiy tahlil, taqqoslash statistik tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

1069-70-yillarda yozib tugallangan "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi bilim") asari qoraxoniylar davlatining mustahkam qaror topishiga xizmat qilgan nizomnomadir. Ushbu qimmatli asar mavjudligi haqidagi dastlabki xabar XIX-asrning birinchi choragida paydo bo'lgan. Bu asarning hijriy 843 (1439) yilda Hirotida uyg'ur yozuvi bilan Hasan Qara Sayil Shams tomonidan ko'chirilgan nusxasi Turkiyaning Tugot shahriga, bu yerdan esa hijriy 879 (1474) yilda Abdurazzoq Shayxzoda baxshi uchun Fanari o'g'li Kadi Ali tomonidan Istanbulga keltirilgan. Uni mashhur tarixchi va sharqshunos Xammer Purgstall Istanbulda sotib olib, Vena saroy kutubxonasiga keltiradi. Shundan so'ng bu asar haqidagi birinchi xabar va uning ba'zi namunalari 1823-yilda fransuz sharqshunosi Jaubert Amedee tomonidan nashr etilgan.

1870-yilda esa venger olimi Vamberi "Qutadg'u bilig"ning eng muhim qismlarini "Uyg'ur tili obidalari" va "Qutadg'u bilig" nomi bilan nashr qildi va nemis tilidagi tarjimasini berdi. 1890-yildan boshlab esa bu asarni mashhur rus sharqshunos olimi Radlov tekshira boshladi. 1896-yilda kitobning arab yozuvi bilan ko'chirilgan ikkinchi nusxasi Qohirada topildi. 1890-yilda Radlov uyg'ur yozuvi bilan ko'chirilgan Vena nusxasining faksimilesini, 1891-yilda shu faksimilesining tekstini manjur yozuvi bilan nashr qildirgan edi. Qohira nusxasidan ko'chirma olgach, u ikki nusxani solishtirish imkoniyatiga ega bo'ldi va 1910-yilda "Qutadg'u bilig"ning transkripsiyasi bilan nemis tiliga qilingan mukammal tarjimasini nashr ettirdi. Nihoyat "Qutadg'u bilig"ning arab yozuvi bilan

ko'chirilgan uchinchi nusxasi haqidagi dastlabki malumot 1914-yilda e'lon qilindi. Sharqshunos olim Valizoda 1913-yilning kuzida o'z shaxsiy ishi bilan Qo'qonga safarga otlanadi va mazkur safarida Qozon universiteti qoshidagi arxeologiya, tarix va etnografiya jamiyati tomonidan Sharq qo'lyozmalari haqida ma'lumot to'plash topshirig'ini oladi. U 1914-yil 20-aprelda Farg'ona ekspeditsiyasi haqida mazkur jamiyatga qilgan hisobot ma'ruzasida namanganlik Muhammadhoji Eshon Lolaresh ismli kishining shaxsiy kutubxonasida "Qutadg'u bilig"ning arab alifbesi bilan yozilgan nusxasi mavjud ekanligi haqidagi xabarni aytgan. Bu esa "Qutadg'u bilig"ning Namangan nusxasi haqidagi dastlabki ma'lumot edi. Bu xabar e'lon qilinganidan so'ng o'zbek olimi Fitrat 1924-yilda Muhammadhoji Eshon Lolareshdan mazkur nusxani olishga miyassar bo'ladi va shu yilning o'zidayoq bu nusxani Toshkent asosiy kutubxonasiga keltiradi. Oradan bir yil o'tgach, "Maorif va o'qitguvchi" jurnalida "Qutadg'u bilig"ning Namangan nusxasi haqida Fitratning maqolasi bosilib chiqadi. 1928-yilda esa u bu asarning ayrim parchalarini izohlar bilan nashr qiladi. Nisbatan to'lig'i Namangan nusxasi bo'lib, 1923-yili Fitrat tomonidan qo'lga kiritilgan, u O'R FA ShI da saqlanadi [2, 610 b]. 6520 baytdan iborat, masnaviy (ya'ni aruzning "mutaqoribi musammani mahzuf") vaznida yozilgan [3].

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

"Qutadg'u bilig" — XI asr so'z san'atining nodir namunasi bo'lib, unda o'z davrining ilg'or ijtmoy-siyosiy, ma'naviy axloqiy masalalari badiiy talqin qilingan, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urf-odat va an'analari, turmush tarzi, qadriyatlarini xususida batafsil ma'lumot berilgan. Yusuf Xos Hojib uni Bolosog'unda boshlab, Qashqarda yozib tugatgan va qoraxoniylar hukmdori Tavg'och Bug'roxonga takdim etgan. Bug'roxon muallifni taqdirlab, unga „Xos Hojib“ („Eshik og'asi“) unvonini bergan. Shundan keyin shoir „Yusuf Xos Hojib“ nomi bilan mashhur bo'lgan. Lekin dostonning oxiridagi shikoyat ohanglariga qaraganda, shoir umrining oxiri bu davlatning tanazzuli davriga to'g'ri kelgan, shunga muvofiq hayoti ham og'ir kechgan.

Mazkur pandnomaning turli joylarda turlicha nomlar bilan atalganligini muallifning o'zi asar muqaddimasida faxr bilan ta'kidlaydi. Bu kitobni chinliklar "Adabul-mulk" (Hukmdorlar odobi), mochinliklar (sharqiy turkistonliklar) "Oyinul-mamlakat" (Mamlakatning tartib usuli), Sharq elining kattalari "Ziynatul-umaro" (Amirlar ziynati), eronliklar "Shohnomai turkey" ba'zilar "Pandnomai muluk" (Hukmdorlar nasihatnomasi), turonliklar esa "Qutadg'u bilig" deb nomlaganlar [4,609].

Ushbu asar mazmuni, tili va uslubidan kelib chiqib aytish mumkinki, ulug' shoir qadimgi turk yozma adabiyoti, turkiy xalqlar og'zaki ijodini ham yaxshi bilgan, shu muhitda tarbiya topgan. Shoir turkiy elatlarning qadimiy qo'shnilarini xitoy, mo'g'ul, hind, eroniy xalqlar madaniyati, yunon falsafasi va o'sha davr ma'naviy hayotining boshqa jihatlarini haqida mukammal ma'lumotga ega bo'lgan. Afsuski, bizgacha shoirning yagona dostonidan boshqa asari yetib

kelmagan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining bizning qo‘limizga yetib kelgan nusxasi oxirgi tahrir bo‘lib, u xoqonga taqdim etilgan.

Davlat va jamiyat qurilishi masalalari, komil inson va ilm-ma‘rifat targ‘iboti asardagi to‘rt ramziy qahramon Kuntug‘di (adolat), Oyto‘ldi (baxt), O‘gdulmish (aql) va O‘zg‘urmish (qanoat) timsollari orqali ifoda qilingan. Asosiy qism mazmuni va mundarijasiga ko‘ra “Qutadg‘u bilig” dostoni mintaqada adabiyoti shakllanishining birinchi bosqichida turkiy tilda yozilgan islom ma‘naviyatining badiiy-falsafiy, ijtimoiy-axloqiy qomusi deb aytsak bo‘ladi.

“Qutadg‘u bilig”da o‘sha davr hayotining barcha qirralari o‘z ifodasini topgan. Yusuf Xos Hojib o‘zining yuksak o‘y-xayollarini ajoyib timsollarda ifodalar ekan, hayotdan bir zum uzilmaydi. Davr ziddiyatlaridan ko‘z yummaydi, jamiyatdagi barcha tabaqa, toifalarga xos fazilat, qusurlar, ijtimoiy ahvolni aniq idrok qiladi.

“Qutadg‘u bilig” kitobi avom xalq uchun emas, birinchi navbatda, xoqon va beklar, ya‘ni yurtning hukmdorlariga atab yozilgan.

“Qutadg‘u bilig” asarida mashhur ijodkorning odob-axloq, o‘g‘il-qiz tarbiyasi, halollik, chin insoniylik, kishilikning ulug‘ hislatlari, kishining ma‘naviy dunyosi, komil inson haqidagi teran falsafiy qarashlari badiiy shaklda bayon etilgan. Ulug‘ mutafakkir falsafasi o‘rta asrlar Sharq falsafiy qarashlarining cho‘qqisida turadi.

“Qutadg‘u bilig”-baxtu saodat haqidagi kitobdir. Asarni o‘qib, ibrat olgan, undagi ko‘rsatmalarga amal qilgan kishilarga saodat eshiklari ochiladi.

“Qutadg‘u bilig” dunyo olimlarining doimiy e‘tiborida bo‘lib, o‘zbek, turk, rus, qozoq, qirg‘iz, ozarbayjon, turkman, uyg‘ur, ingliz, nemis tillarida ilmiy tarjimalari va tadqiqotlari nashr etilgan. 2019-yilni YUNESKO tomonidan “Xalqaro “Qutadg‘u bilig” yili” deb e‘lon qilindi [5].

Yusuf Xos Hojib haqida ma‘lumotlar ko‘p emas. Yusuf Xos Hojibning Qashqardagi maqbarasi ziyoratgohga aylangan.

Xalqning taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlarida, tarixiy bosqichlaridan birida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan shaxslarning faoliyatini abadiylashtirish maqsadida muzeylar jumladan, uy muzeylar tashkil etiladi. Yusuf Xos Hojib XI asrning namoyondasi sifatida, uning uy-muzeyini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Yusuf Xos Hojibning uy-muzeyi quyidagi bo‘limlardan tashkil etish zarur:

1. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodi bo‘limi - shoirning tarjimai holi, “Qutadg‘u bilig” asarining qo‘lyozma nusxalari, uning falsafiy qarashlari haqida materiallar.

2. XI asr hayoti bo‘limi - davrning kiyim-kechaklari, turmush buyumlari, hunarmandchilik namunalari.

3. “Qutadg‘u bilig”ga bag‘ishlangan interaktiv bo‘lim - asardan parchalar, multimedia dasturlar orqali uning mohiyati bilan tanishish imkoniyati.

4. Ilmiy-tadqiqot markazi - olimlar uchun maxsus kutubxona va arxiv.

Ushbu uy-muzeyini tashkil etish bo‘yicha konsepsiya ishlab chiqish davomida muzeyshunoslik sohasida faoliyat olib borayotgan soha vakillari bilan

hamjihatlikda ishlash, muzeyni ekspozitsiyasini mukammal yaratilishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nafaqt XI asrda dolzarb bo'lgan, balki bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan "Qutadg'u bilig" asari butun dunyoda ayniqsa, turkiy xalqlar orasida alohida e'tirof etiladi. XX asr marifatparvarlarimiz (jadidlar) o'z g'oyalarini ushbu asardan ilhomlanganligi holda yaratganliklari bejiz emas. Yusuf Xos Xojibning ilmiy merosini ilmiy jihatdan chuqurroq o'rganish, uning ilmiy merosini keng jamoatchilikka va kelajak avlodga yetkazish maqsadida uy-muzeyini tashkil etish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Kochnev B. D., Numizmaticheskaya istoriya Karaxanidskogo kaganata (991—1209 gg.). Moskva „Sofiya“, 2006. s.147
2. https://t.me/ares_uz Volume 4 | Issue 5 | 2023. 610-bet.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yusuf_Xos_Hojib
4. https://t.me/ares_uz Volume 4 | Issue 5 | 2023. 609-bet.
5. <https://oliymahad.uz/41621>